



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3542,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 131,2 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1951,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3542,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari - 998,6 mlrd.so'm, savdo xizmatlari– 974,8 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 857,3 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 462,0 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 249,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (131,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (130,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,2 %), ijara xizmatlar (108,6 %), kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar- jami	3542,6	108,3
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	249,9	112,2
moliyaviy xizmatlar	462,0	131,2
transport xizmatlari	998,6	103,5
shu jumladan: avtotransport xizmati	958,5	103,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	85,1	103,3
savdo xizmatlari	974,8	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	120,2	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	138,4	130,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	63,5	107,7
ijara xizmatlari	83,7	108,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi- cha xizmatlar	130,3	104,3
shaxsiy xizmatlar	111,9	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	34,7	104,0
boshqa xizmatlar	89,5	107,3